

Surxon tongi

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan



surxontongi.uz



t.me/surxontongi

2025-yil
20-avgust
(chorshanba)
33-son
(17 966)

Aholini zamonaviy turar joylar bilan ta'minlash, shahar infratuzilmasi va qiyofasini yaxshilash yo'nalishida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning borishi shaxsan viloyat hokimi nazoratida. Tadbirkorning huquqlarini himoya qilgan holda ularning burchalarini ham eslatib turishni odat qilgan viloyat

xizmat ko'rsatish nuqtalari hamda avtoservislar tashkil etish jarayonlari o'rganildi. Shuningdek, topshiriqlar ijrosi yuzasidan Termiz tumanidagi "Yangi O'zbekiston" massivida bo'lgan Ulug'bek Qosimov ko'p qavatlari uy-joyolar, "Yoshlar tadbirkorlik va sanoat zonasasi", bog', ijtimoiy va ko'ngilochar maskanlar qurilishi jarayonlari

xavfsizligini ta'minlash va kuzatilayotgan tirbandliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Qurilish sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning borishi, yangi loyihamlar taqdimotlari bilan tanishish ishlari Sariosiyo tumanida davom ettilirdi. Viloyat hokimi,



ISLOHOTLAR SAMARASI

KUZATUVCHI EMAS, IJROCHI BO'LIB...



rahbari Termiz shahri va Termiz tumanida bo'lib, olib borilayotgan qurilish ishlari hamda avvalgi tashriflarda berilgan topshiriqlar ijrosi bilan tanishdi. Xususan, Termiz shahrida 800 xondoni "O'zbegim" turar joy majmuasi, ko'p qavatlari uy-joyolar, Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam markazi viloyat filialining 80 o'rinni qo'shimcha binosi, shuningdek, 2,6 gektar maydonda "Temirchilik klasteri" va qurilish materiallari sanoat zonasidagi ishlari ko'zdan kechirildi. Tig'iz ish kuniga qaramay, viloyat hokimi tomonidan "Tinchlik" mahallasida zamonaviy uslubda yopilgan kollektor ustida savdo va

bilan ham tanishib, pudratchi tashkilotlar va mas'ullar bilan amalga oshirilayotgan ishlarni muhokama qildi.

Binolarning qaddi raso, ko'raklashar ekan, unga ravon yo'llar, xavfsiz va qulay transport yo'laklari yarashadi. Buni teran anglagan holda, viloyat hokimi manzilning infratuzilmasi bilan alohida qiziqadi. Qumqo'rg'on tumani hududidan o'tvuchi temiryo'l va avtomobil yo'llari kesishmasida yo'l o'tkazgich qurish loyihami taqdimoti bilan tanishgan hokim mutasaddilarga loyihaming texnik-iqtisodiy asoslarini puxta ishlab chiqish, zarur taklif va hisob-kitoblarni tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Ta'kidlash o'rinni, mazkur loyiha hududda harakat

dastlab, "Yangi O'zbekiston" massivida barpo etilayotgan ko'p qavatlari turar joylar, oilaviy poliklinika va boshqa ijtimoiy obyektlari qurilishini ko'zdan kechirdi. Mas'ullarning mazkur yo'nalishdagini axborotlari tinglanib, hududni obodonlashtirish, yashil maydonlar tashkil etish hamda sug'orish tizimlarini o'rnatish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

"Sariosiyo Mall" savdo majmuasi va ko'p qavatlari turar joylar kompleksini barpo etish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan loyihamlar taqdimoti ham ko'rib chiqildi. Keyingi manzillarda tuman markazini obodonlashtirish, infratuzilmani yaxshilash ishlari o'rganildi.

Xususan, tumandagi 9-sloni maktabning 570 o'rinni qo'shimcha o'quv binosida olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash jarayonlarini ko'zdan kechirgan viloyat hokimi "Boysunobod" mahallasi hududida harbiy qism dala o'quv maydonida olib borilayotgan qurilish ta'mirlash ishlari bilan ham tanishdi. Shuningdek, Ulug'bek Qosimov tumanning "Hulkar" mahallasida ham bo'lib, asalarichilik bilan shug'ullanayotgan oila bilan dildan suhbatlashdi. O'rganish yakunida tuman hokimligida viloyatdagi qurilish sohasi mutasaddilar va soha vakillari, shuningdek, videokonferensaloqa orqali hudud mas'ullari ishtirokida dasturlar va loyihamlar ijrosi, ijtimoiy soha obyektlari qurilishi

yuzasidan muhokama o'tkazildi.

Yurtning obodligini kuzata turib ilhomlanish mumkin, biroq bu manzillarda kechayotgan jarayonning bevosita ishtirokchisi bo'lish ulkan mas'uliyat va zimmangdagagi vazifalar ijrosidan qoniqish hissini ulashadi. Shu bois ham, viloyat hokimi har safar hududlarda bo'larkan, mutasaddilarga alohida topshiriqlar beradi va albatta, topshiriqlar ijrosi yuzasidan hisob so'raydi. Demakki, soniya sayin obodlashayotgan manzillarga keyingi tashrif jadal sur'atlarda kechgan buniyodkorlik ishlaringin guvohi bo'lish imkonidir.

"Surxon tongi"

OBOD VA FAROVON MANZIL – SURXONDARYONING HUSNIGA HUSN QO'SHAYLIK! VILOYAT FAOLLARINING VOHA AHLIGA MUROJAATI

AZIZ VOHADOSHAR!

Prezidentimiz tashabbusi bilan keyingi yillarda mamlakatimizdagi barcha soha va tarmoqlarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, inson qadri va manfaatlari olyi qadriyat darajasiga ko'tarilmogda.

Hayotbaxsh islohotlar nafasi viloyat markazidan tortib, eng olis va chekka mahallalgacha kirib boryat. Qayerga bormang, muhtasham va ulug'vor imoratlar, yangi shaharcha va massivlar qurilayotganiga guvoh bo'lasiz. Har qadamda yangi korxonalar, sanoat zonalari ishlab turibdi. Ilgari chang va loyga botgan ko'chalardan bugun asar ham qolmagan. Tekis va ravon yo'llar, tunlarni ham kunduzday yoritib turgan chiroqlar...

Qisqasi, har mahallada obodlik, har oilada fayz-baraka, har inson qalbida shukronalik. Ozod va obod Vatan ko'ksida marvarid-inju

misol toblanib, o'zini dunyoga ko'z-ko'z aylayotgan so'lim Surxon ham ayni damda bayramona tuyg'ular og'ushida. Mustaqilligimizning 34 yillik shodiyonalari tobora yaqinlashib, bizni yangi yutuq va muvaffaqiyatlar sari undamoqda. Zero, viloyatimiz ahlining mamlakatdagi olamshumul islohotlar jarayoniga qo'shayotgan hissasi ulkan. Bu hissa "Yangi O'zbekiston" massivlaridagi osmon bilan bo'ylashayotgan binolar yanglig' yuksak, Bu yuksaklik har bir yurtdoshimizning maqsadlariga ham ko'chganiki, barcha intilish va sa'y-harakatlar ana shu hayotbaxsh maqsadlarga mushtarak!

QADR LI VILOYATIMIZ AHLI!

Ota-bobolarimiz: "Vatan mahalladan boshlanadi", degan maqolni bejiz aytmagan. Chunki biz – el-u yurt chorlaganda, azaldan "labbay!" deya xalq xizmatida astoydi kamarbasta bo'luvchi mard va olijanob xalqning farzandlarimiz. Obod mahallalarda tongdan yuz yuzgan ko'chalarning

chiroyi ozoda shahar-u qishloqlarning chiroyidir. Mahallarini obod va ozoda tutgan ahli voha biladiki, baraka aynan sarajomlikdan boshlanajak! Zotan, mustaqilligimizning qutlug' 34 yillik bayrami yaqinlashib, kelayotgan ushbu kunlarda "Uying obod bo'lsa, ko'chang obod bo'ladi, mahallang obod bo'lsa, qalbing obod bo'ladi", degan hayotiy shior har bir fuqaroning, mahalla faolining kundalik faoliyatida dasturilamalga aylanishi lozim!

Yurtimizda yuz berayotgan o'zgarishlarning barchasi istiqlol sharofatlaridir! Zero,

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Keyingi yillarda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida ulkan qadamlar qo'ydik. Har bir ishimiz, har bir yutug'imizda istiqlolning buyuk qudrati namoyon bo'imqoda. Vatanimiz dunyo, dunyo esa yurtimizga keng ochilmoqda. Mintaqamiz va butun jahonda do'stlarimiz, hamkorlarimiz ko'paymoqda".



Ha, qanchalik ko'p takrorlanmasin, Vatan – buyuk sajdagoh, istiqlol – ulug' ne'mat ekanligi haqidagi hikmatlar yanada yangicha mazmun-mohiyat kasb etaveradi. Ana shu tamoyillarga amal qilib, yanada yakdil va hamjihat bo'lib, eng ulug' va eng aziz bayram – mustaqilligimizning 34 yilligini shod-u xurramlikda,

MUBORAK BO'L SIN!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan milliy iqtisodiyotimizda barqaror o'sish sur'atlarni ta'minlash, yurtimizda tadbirkorlik rivojini yangi bosqichga ko'tarish, mamlakatimizning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yuksaltirish borasidagi xizmatlari, sohaga ilg'or innovatsion, "yashil" va raqamli texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish, ish o'rinnari yaratish, aholi farovonligini oshirishga qo'shgan katta hissasi, shuningdek, biznesda erishayotgan salomoqli natijalarini hamda ijtimoiy hayotdagi munosib ishtiroti uchun "Shurhat" medali bilan

RAJABOV Botir Jo'rayevich — Bandixon tumanidagi "Omad" fermer xo'jaligi boshlig'i

hamda Prezident farmoni bilan bir guruh vohadoshlarimiz "Fao tadbirkor" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi:

ABDUKERIMOV Zafarjon Baxtiyor o'g'li — Termiz tumanidagi "Termiz International Trade Centre" mas'uliyati cheklangan jamiyat direktorining o'rinosidari;

ANOROV Sherzod Xolmurzayevich — Termiz shahridagi "Me'mor Inter Stroy" mas'uliyati cheklangan jamiyat rahbari;

DJURAYEV Baxodir Ismailovich — Qumqo'rg'on tumandagi "Joziba mebel" xususiy korxonasi rahbari; OCHILOV Murodjon Maxamadiyevich — Termiz tumanidagi "Gold Dried Fruits Export" mas'uliyati cheklangan jamiyat rahbari;

XOLMUMINOV Axrorjon Ilyomovich — Denov tumanidagi "Inter Prof City Stroy" mas'uliyati cheklangan jamiyat direktori. Sharafli medal va ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan vohadoshlarimizni samimiy qutlaymiz!

OLIY TA'LIMDA GENDER DEZINFORMATSIYA

YOXUD YASHIRIN TAH DID VA OCHIQ HAQIQATLAR

"Har to'kisda bir ayb bor" deganlaridek, jamiyatimizda haligacha xotin-qizlarning huquq va manfaatlari, olla va jamoatchilik orasida tutgan o'rniqa birmuncha o'gay qarash saqlanib qolgan. Go'yoki, ayol kishilarga "bu narsa mumkin", "bunisi esa mumkin emas" qabilidagi ayrim eschicha qarashlar haliyam

etish orqali jamiyatda erkak va ayol rollarini cheklashga qaratigan xabarlar. Bunday ma'lumotlar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar, og'zaki gap-so'zlar yoki hatto o'quv jarayonida ham uchraydi.

Masalan: "Aylor uchun ilm shunchaki qo'shimcha, uning o'qishi shart emas", "Texnika fanlari erkaklarga, gumanitar

kabi gaplar tasodifiy tuyuladi, ammo talabalar ongida chucher iz qoldiradi.

3.Ishga joylashishdagi noto'g'ri maslahatlar – bitiruv arafasida qizlarga "Bunday ish joyida ko'p sayohat qilasiz, oilaviy hayotga zarar" deyish orqali

cheklanishi, iqtidorli yoshlarning o'z salohiyatini to'liq ocholmasligi, ish bozorida jinsiy nomutanosiblik kuchayishi. Avvalo, inson sifatida bunday holatlarga qarshi kurashish bizning odamiylik burchimizdir. Buning uchun:

haqiqatni himoya qilishimiz shart. Ma'lumot o'rniida ayish mumkin, ushbu loyiha mamlakatimizda, xususan viloyatimizda gender tenglikni ta'minlash maqsadida Nodavlat notijorat "Taskin"

quvvatlanmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda gender tenglik bo'yicha ko'plab loyihibar amalga oshirayotganligi bejiz emas.

Muborak hadisi sharifda: "Beshikdan qabrgacha ilm izla!" deyiladi. Eng muhim omil shundaki, bu shunchaki oddiy da'vat yoki chaqiriq emas, aksincha barcha mo'min-musulmonlar uchun farz qilingan amaldir. Eskidan gap bor, erkak kishining olgan ilmi o'ziniki, ayol kishi esa butun millatni tarbiyalaydi. Shu sababli salohiyati baland odam biladiki, ayollarning bilim olishi juda ham muhim.

qaysidir ko'rinishda saqlanib qolgan. Shubhasiz, bugungi kunda oly ta'lim tizimi naqaqt bilim berish, balki kelajak avlodning dunyoqarashini shakkantirishda ham eng muhim maydon hisoblanadi. Afsuski, bu maydonda ham gender dezinformatsiya – ya'ni, jinsga oid noto'g'ri, manipulyativ va stereotipli axborotlar – o'z "o'yin"ini o'yamoqda.

GENDER DEZINFORMATSIYA NIMA?

Gender dezinformatsiya – bu ma'lumotni ataylab yoki bilmasdan noto'g'ri taqdim

yo'nalishlar ayollarga mos" kabi stereotiplar, "Ayollar rahbar bo'lsa, jamoada muammolar ko'payadi" kabi asossiz iddaolar. Bu kabi asossiz stereotiplar oly ta'linda ham o'z aksini topgan desub mubolag'a bo'lmaydi.

Misol uchun:
1.Talabalik davridagi qarorlar – ba'zi qiz talabalar STEM (texnika, muhandislik, matematika) yo'nalishlarini tanlashdan voz kechadi, chunki atrofdagilar, "Bu soha ayolga og'ir" deb ishontirgan bo'ladi.

2.O'qituvchilar nutqida yashirin xabarlar – ba'zan dars davomida "Bu ish erkaklarga mos" yoki "Bu mavzuni qizlar yaxshi tushunadi"

ularni orzularidan qaytarishga urinishi.

Statistik dalillar UNESCO ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha STEM yo'nalishida o'qiyotgan talabalar orasida ayollarning ulushi atigi 35 foiz. O'zbekiston Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlarida, ayrim texnika yo'nalishlarida ayollar ulushi 20 foizdan kam. Bu ko'rsatkichning pastligi ko'pincha dezinformatsiya va stereotiplarga bog'liq.

GENDER DEZINFORMATSIYANING OQIBATLARI:

Talabalar tanlov erkinligining

1.Ta'linda tanqidiy fikrashni rivojlantirish – talabalarini olinigan har qanday ma'lumotni tekshirishga o'rgatish.

2.O'qituvchilar uchun gender sezgirkil treninglari – o'quv jarayonida yashirin diskriminatsiyani kamaytirish.

3.Ijobiy rol modelлari – oly ta'linda muvaffaqiyatga erishgan ayol va erkak mutaxassislar haqida ko'proq hikoya qilish.


Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Gender dezinformatsiya – bu faqat yolg'on ma'lumot emas, balki imkoniyatlar tengligiga to'siq bo'luchchi eng xavfli omillardan biridir. Uni yengish uchun har birimiz o'z sohamizda

markazi loyihasi asosida amalga oshirilmoqda. "Yevropa Ittifoqi Tabassum: O'zbekistonda gender tenglikni targ'ib qilish va yosh ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun media qobiliyatlar" loyihasi DW Akademija tomonidan Zamonaviy jurnalistikan rivojlantirish markazi (MJDC) bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda; Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalash-tirilmoqda va Germaniya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi (BMZ) tomonidan qo'llab-

Huquqiy erkin demokratik davlatlarda erkaklar va xotin-qizlar o'zaro teng huquqqa ega bo'lishi normal holat hisoblanadi. Turli xil davlat muassasalarini.

Senat, Qonunchilik Palatasi hamda vazirliklarda ayol rahbarlarning faoliyat yuritayotganligi buning amaliy isbotidir. Nima bo'lganda ham, yurtimizda gender tenglik bo'yicha ijobji siljish bo'layotganligining o'ziyoy ulkan yutuqdir.

Ozoda YOZDONQULLOVA



BEKINMACHOQ O'YNAYDI KO'CHADA YO'LBELGILAR, DARAXTLAR PANASIDA, BINOLAR SOYASIDA. KO'RINMASLIK ISTAYDI, YASHIRINDIR SEZGILAR – O'SIMLIK CHIRMASHADI BELGINING POYASIGA...

YO'G'E!



QANDAY AJOYIB TANDEM, TO'XTASH KERAK YO YURISH, KERAKDIR, BALKI, SHU PAYT JANJALLAR YOKI URUSH. KARVON O'TAR, ITNING HAM ODATI BO'LAR HURISH – QOYIL QOLDIM MEN LEKIN, KO'RINMAS G'OYASIGA!

KUTUBXONA TEKIN, QIMMATBAHO LEKIN...

Zamonaviy jamiyatda bilim va ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati insonlarning intellektual va madaniy rivojlanishi bilan o'chanadi. Kutubxonalar – bu barcha odamlar uchun ochiq bo'lgan, bepul foydalanan imkoniyatini taqdim etuvchi bilim markazi hisoblanadi.



Kutubxona – bu jamiyat uchun muhim ta'lim va madaniyat manbay bo'lib, unda har kim o'z bilimini oshirish, yangi ma'lumotlar olish va o'z qiziqishlariga mos ravishda kitoblar, jurnallarni mutolaa qilishi mumkin. Kutubxonalar odamlarning fikrini kengaytirish, ijodkorlikni rag'batlanish va ijtimoiy muhitini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Sherobod tumanidagi Axborot kutubxona markazimizda 35 mingdan oshiq kitob fondimiz mavjud. Har

qanday odam, yoshidan qat'i nazar, kutubxonamizga kelib, o'z dunyoqarashiga mos, qiziqarli kitoblarni topishi mumkin. Kutubxonamiz kitoblar taqdim etishdan tashqari shinam o'quv zalgiga ham ega. Unda naqaqt kitoblar, balki kompyuterlar, internet va boshqa resurslardan ham foydalanish, interneta bepul kirish, bu orqali yanada kengroq ma'lumotlarni izlash, elektron kitoblar va audiokitoblar bilan tanishish, turli madaniy va ilmiy tadbirlarga qatnashish

ayni muddaadir. Bu jarayon, albatta, sizning bilimlaringizni yanada kengaytirishi mumkin. Bundan asosiy maqsadimiz xalqimiz orasida ziyozi insonlar, bilimli yoshlar ko'payishi xolos. Yurtimizdan yana Imom Buxoriy, Al Korazmiy kabi yetuk ulamolarning yetishib chiqishi, yosh avlodning mutolaaga bo'lgan ciziqishini oshirish, ta'limni rivojlanishiga va jamiyatda bilimli avlodni shakllantirish biz kutubxona xodimlarining vazifamizdir. Har bir inson bu

imkoniyatlardan foydalanish, o'z bilimini oshirishi va yangi g'oyalarni kashf etishi mumkin. Kutubxonalarning bepul ekanligi bir jihatdan qadrsizda tuyulishi mumkin. Biroq undan olinadigan bilim va ishtiyogni hech qanday miqdordagi mablag' bilan o'chab bo'lmaydi. Beqiyos zavq va cheksiz hayajon, ilmiy salohiyati kutubxonalar va'da qila oladigan ustuvor jihatdir. Bebaho xazinadan bepul foydalanish esa jamiyatning intellektual poydevorini barpo etishda muhim omil hisoblanadi.

Madina ADILOVA,
Sherobod tuman Axborot kutubxona markazi Abonentlar va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish xizmati mutaxassis

"GULBAHOR" DA ORTTIRILGAN TAJRIBA

Termiz tumanidagi "Gulbahor" mahallasi viloyatimizning olis va chegaradosh hududlaridan bira. Tuman markazidan ancha chekkadagi mahallada yashovchi insonlarning tashvishi va yillar davomida to'planib qolgan muammosi yetarli edi. Har bir fuqaroning qalbiga yo'il topa bilish, ularning tashvishiga sherik bo'lish, ko'pnin ishonchini qozonish, ayniqa, yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash hamda ish o'rinalarini ko'paytirish uchun katta hayotiyoj tajribaga ega mutaxassis talab etilardi.

Qishloqda muammolarga yechim izlashta "mahalla yettiligi"da yetakchi rol o'ynaydigan hokim yordamchisining mahorati va tashabbuskorligiga ko'p narsa bog'liqligini inobatga olgan tuman hokimligidagilar mahallada tadbirkorlikni rivojlanish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi vazifasiga Baxtiyor Qurbonniyozov nomzodini tanlab adashmagan ekan.

Baxtiyor Qurbonniyozov ancha yil moliya-iqtisod tizimi va banklarda ishshash jarayonida yetarli tajriba to'plagan, fuqarolar bilan muomala qilish san'atini puxta o'zlashtirgan bois mahallaga borgandanoq qishloq aholisini tezda inoqlashib ketdi. Xonardonma-xonadon kirib, odamlar kayfiyatini va sharoitini o'rgandi. Drayver soha bilan qiziqdi,

qaysi fuqaroning qanday ishni eplashi, qanday kasb-kor bilan shug'ullanishini bildi. Band va ishshash aholini tarkibiy tahlil qilish, ishchilarni manzilli aniqlash, ularning hisobini yurishit, ishshash fuqarolarni ishga joylashtirish hamda oilalarni kambag'allikdan chiqarish individual rejasini ishlash chiqidi.

Mahallada zavod-fabrika yo'q, odamlarning tayanchi ham, suyanchi ham yer. Hududda faoliyat ko'rsatayotgan 4-5 ta fermer xo'jaligi dalaralida sanoqli odamlar ish bilan band. Azaldan dehqonchilik va chovchachilik bilan mashgi'ul bo'lgan insonlarning farzandlari ham zaminda biror ziroat ko'kartirib, ikki-uch bosch chovra mollarini boqishga odatlanib qolganini tushungan Baxtiyor talabgorlarga yer ajratish hisobiga ularning bandligini ta'minlash va oilalarning turmushini farovonlashtirish mumkinligini

anglab yetdi. Odamlarga qayerdan yer ajratsak ekan, deb boshi qotib turganda Prezidentimizning 2022-yil 10-sentyabrdagi "Dehqon xo'jaliklari tashkili etishni qo'llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-373-soni qarori kuchga kirib, yoshlarga yer ajratish muammosiga yechim topildi. Qarorga asosan 2022-2025-yillarda mahalladagi kambag'al oilalarning ishshiz a'zolari bandligini ta'minlash maqsadida 122,5 hektar yer ajratildi.

Bundan tashqari, Prezidentning 2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-153-soni qarori bo'yicha 24 hektar yer 50 so'tixdan bo'linib, "E-auksion" platformasi orqali savdoga chiqarildi. Auksionga bo'yigan zaminga chekkadan xaridor chiqqani yo'q, hokim yordamchisi mahallaning yoshlar

yetakchisi Ruslan Do'stqobilov bilan hamkorlikda ishsiz yoshlarni aniqlab, ularning 48 nafariga o'sha 24 hektar yer uzoq muddatga ijara berildi. Hokim yordamchisi tashabbusi bilan kooperatsiya tashkili qilinib, yoshlarga berilgan yerda "Bir mahalla – bir mahsulot" tamoyil asosida eksportbop mahsulotlar yetishtirish yo'lg'a qoldi. Yoshlar yerni shunchaki egallab qo'ymay, balki har qarichidan samarali foydalansin, degan ma'noda ularning har biri nomiga "Dehqon xo'jaligi" hisobvaraq'i ochildi. Rossiya va boshqa chet davlatlarga ishslash uchun borib munosib ish topolmay qaytgan Sunnatulla Xushatov va Jahongir Mustafoqulov kabi yoshlar ijara berilgan zaminga tarzib ekib, 80 million so'mdan daromad qilishdi. Dastlabki natija yosh dehqonlarni ruhlantirdi. Endilikda yoshlar yerga har yili turva mahsulotlar yetishtirib, mo'may daromadli bo'lishyapti.

Hokim yordamchisi xonardonbay ishlab, tadbirkorlikka havasi balandlarni aniqlab, ro'yxatini shakllantirdi. Ularni kichik biznes bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish harakatiga tushdi. Mahalla hududidagi yerlarga uzoq yillardan buyon asosan g'alla, paxta va poliz ekinlari ekilgan-u, lekin bir sotix bo'lsa-da,

mevali bog' yoki uzumzor tashkil qilish hech kimning xayoliga ham kelmagan. Qahramonimiz oqsoqlardan bu yerlarda daraxt ko'karish-ko'karmasligini so'rab bildi-da, ixchamgina bo'isada bog' yaratishni diliga tugib qo'ydi. U eksportbop mahsulotlar sirasiga bog' noz-ne'matlari ham qo'shilsa, fuqarolarning daromadi yana ham ko'payishini inobatga olib, bog'bonlik ilmidan xabari bor Alisher Saparov nomiga 15 hektar yer ajratilishiga erishdi. Chet el, shuningdek, vodiyyadagi viloyatlardan mevali daraxtlarning eng sara navlari ko'chati keltirilib o'tqazildi. Artezian quduq'i qazilib, tomchilat

sug'orish joriy qilindi. Samarasi chakki emas: uch yildirki, intensiv bog'dan sarxil mevalar terilib, eksport qilinyapti. Hokim yordamchisi sa'y-harakatida bir necha nafar fuqaroga "Oilavy tadbirkorlikni rivojlanish" dasturi doirasida kredit berildi. Jumladan, Shahlo Odinayevaga chovchachilik yo'nalishida tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun yordamchining tavsiysi bilan 100 million so'm kredit ajratildi va "Kichik biznesga ko'maklashish markazi"da o'qib malakasini oshirdi.



Viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasining katta majlislar zalida "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat, shahar va tumanlari Kengashlarining navbatdagi II Qo'shma Plenumi o'tkazildi.

PLENUM TANQIDIY TUS OLDI

Plenumda, O'zMTDP viloyat Kengashi a'zolari, O'zMTDP viloyat Kengashi Ijroiya qo'mitasi devoni xodimlari, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga partiyanadan saylangan deputatlar, O'zMTDP tuman (shahar) Kengashlari raislari hamda partiya faollari ishtirok etdi.

Dastlab, O'zMTDP viloyat Kengashi raisi, Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati Saydulla Abduraimov joriy yilda "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan egzu q'oya ostida nishonlanadigan mamlakatimiz mustaqilligining 34 yillik bayrami bilan II Qo'shma Plenum ishtirokchilarini tabrikadi. Shundan so'ng, O'zbekiston

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Surxondaryo viloyati, shahar va tumanlari Kengashlarining 2025-yil birinchi yarimyillik faoliyati yakunlariga bag'ishlangan tahliiy-tanqidiy ma'rurasini tinglandi.

Keltirib o'tilganidek, 14 ta masala Xalq deputatlari shahar va tuman Kengashlari sessiyalarida ko'rib chiqilgan hamda tegishli qarorlar qabul qilingan. Ammo, viloyat Kengashi deputatlari va Bandixon, Boysun, Denov, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Oltinsoy, Sherobod, Sariosyo, Muzrobod tumanlari hamda Termiz shahar Kengashidagi deputatlar tomonidan umuman takliflar, shuningdek, sessiya kun tartibiga masala olib chiqilgan. Joriy yil birinchi

yarimyilligida Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga partiyadan saylangan deputatlar tomonidan 306 ta deputatlik so'rovlar amalga oshirilgan. Ularning 71 foizi ijobji hal etilib, doimiy komissiylar yig'ilishlarida 22 ta masala dastlabki tarzda ko'rib chiqilgan. Yig'ilish davomida deputatlik so'rovi chiqarmagan deputatlar faoliyat qattiq tanqid qilindi. Mahalliy Kengashlardagi partiya guruhni a'zolari tomonidan "Deputat bilan yuzmayuz", "Deputat bilan uchrushuv", "Aylor deputat bilan uchrushuv", "Uyma-uy", "Ayollar va yoshlar" qanotlari bilan hamkorlikda "Mahorat darsi", "Targ'ibot guruh", "Til posponlari" loyihalari doirasida

joylarda deputatlarning yoshlar va aholining turli qatlamlari bilan 293 tadan ziyod uchrushuv va muloqtolar o'tkazilganligi aytib o'tildi. Faoliyatida sustashliksha yo'l qo'yan, partiya bilan aloqasini uzgan nofaol deputatlardan 3 (uch) nafarini muddatidan oldin chaqirib olish choralarini ko'rish bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashlari raislariga xat yuborilganligi ta'kidlandi. Partiyaning "Uyma-uy" loyihasi doirasida shahar va tuman Kengashlari tomonidan deputatlik guruhi a'zolari bilan hamkorlikda 220 ta aholi xonardonlariga tashrif yuhshtirilib, xotin-qizlar tomonidan bildirilgan 44 ta muammoli holat tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ijobji hal etilgan. "Xizmat —

beminnat" loyihasi doirasida mahallalarda istiqomat qilayotgan "Temir daftari" va "Ayollar daftari" ga kiritilgan vaqtinchalik ihsiz xotin-qizlarni yo'shimcha bepul kasb-hunarga o'rgatsisha yo'naltirilgan — 11 ta yo'naliш bo'yicha to'garaklar faoliyati yo'Iga qo'yilib, sport, musiqa, tikuvcilik, kompyuter savodxonligi, qandolatchilik kursorlari jami 84 nafar uyushmagan xotin-qizlar qamrabs olinigan. Tanqidiy ruhda o'tgan plenumda kun tartibidan o'rinn olgan boshqa masalalar ham muhokama qilindi. Muhokama qilingan masalalar yuzasidan Kengash a'zolari va deputatlar tomonidan fikr-mulohazalar bildirildi. Ko'rib chiqilgan kamchilliklar bo'yicha ma'sullarga topshirilqlar berildi.

Ulug'bek XO'JAULOV
"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat Kengashi raisi o'rinsobari

tasdiqlandi. Ko'rilayotgan chora-tadbirlar samarasini o'laroq, jamiyatda korrupsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, shaffof muhit yaratilmoqda. Bu esa har birimiz uchun befarq bo'limaslik, qaysidir darajada korrupsiyaning sodir bo'lishiga sababchi bo'lib qolmaslik, aksincha unga qarshi ayovsiz kurash olib borish imkonini beradi. Albatta, bu xatarli illat bilan kurashish bir kun, ikki kunlik ish emas, u hammamizdan ogohlilikni, faol fuqarolik pozitsiyasini talab qiladigan doimiy jarayondi.

Ta'kidlash o'rinniki, sohaning normativ-huquqiy asoslari shakkantirilib korruptsianing oldini olishga qaratilgan analimy choralar ko'rish uchun uchun mustahkim poymevor bo'lib xizmat qilmoqda. Sohaga oid 10 ga yaqin qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 ta farmon va qarori, hukumatning 2 ta qarori va 20 dan ortiq idoraviy hujjat hamda ikkita davlat dasturi

xalqimiz sezadi. Xalqimizda: "haromdan hazar" degan ibora bor. Binobarin, korrupsiya xalq hazar qiladigan nophok illatdir. Bu kabi azaliy tushuncha va qadriyatlarni ayniqsa yoshlar ongiga singdirish, fikri toza, korrupsiya toqatsiz yangi avlodni kamolga yetkazish oila, maktab, butun jamoatchilik oldida turgan ustuvor vazifadir

A.CHARIYEV, viloyat prokururasi prokuratura organlari tergov tarmoqlari faoliyati ustidan nazorat bo'limi boshlig'i
X.KENJAYEV, viloyat prokururasi prokuratura organlari tergov tarmoqlari faoliyati ustidan nazorat bo'limi katta prokurori
B.REZAMOV, Sho'rchisi tuman prokururasi tergovchisi



